

“SAHIH – UL BUXORIY”DA VORID BO‘LGAN HADISLARDAGI الغداة (TONG, BOMDOD NAMOZI) SO‘ZINING TARJIMADAGI MA’NOLARI

Temirov Jasur Nazirjonovich

SamDCHTI Yaqin sharq tillari kafedrasida katta o'qituvchisi

jasurtemirov81@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislardagi الغداة – **tong, bomdod namozi** so'zining leksik-sematik xususiyatlari ilmiy jihatdan tekshirilgan. Bu so'zning hadislarda turli o'rinlarda turli ma'no qatlamlarini ifodalab kelishi, arab va o'zbek tillari grammatik ko'rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil qilingandagi leksik-sematik o'ziga xosliklari misollar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: tong, majrur, semantika, leksika, raf', nasb, jar, majrur, mansub, tamiy, payt ravishi.

Аннотация. В статье были научно исследованы лексико-семантические особенности слова الغداة – рассвет, утренняя молитва в хадисах, переданных имамом аль-Бухари. Лексико-семантические особенности этого слова при сравнительном анализе, основанном на грамматических показателях арабского и узбекского языков, были изучены на примерах.

Ключевые слова: рассвет, маджрур, семантика, лексика, рафъ, насб, джар, маджрур, принадлежность, тамийз, наречие времени

Abstract. In the article, the lexical-semantic features of the word الغداة – morning prayer in the hadiths narrated by Imam al-Bukhari have been scientifically investigated. The fact that this word expresses different layers of meaning in different places in the hadiths, its lexical-semitic peculiarities when compared on the basis of Arabic and Uzbek language grammatical indicators are studied on the basis of examples.

Key words: morning, majrur, semantics, lexicon, raf', nasb, jar, majrur, mansub, tamiy, adverb of time.

Dastlab shuni ta'kidlash joizki, buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy ilmiy merosini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar asrlar mobaynida nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham hali yakun topmagan va hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Ammo, ushbu ilmiy meros to'laligicha arab, o'zbek tillarida balki, boshqa dunyo tillarida haligacha to'laligicha o'rganilinmagan. Tadqiqotni o'zbek va arab tillaridagi qiyosiy jihatdan o'rganishga bo'lgan ishlar hali yetarli darajada tadqiq etilgan emas deb o'ylaymiz. Shu bois, Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadislarda vaqt ko'rsatkichlarini qiyosiy jihatdan o'rganishni o'z oldimizga maqsad qildik.



Bu borada o'zbek olimlaridan, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Muftiy Usmonxon Alimov, Shayx Olovuddin Mansur fan doktori, professor, islomshunos olim U. Uvatov, va boshqalarning ishlarini keltirishimiz mumkin.

الغداة: جاء في مقاييس اللغة "الْعَيْنُ وَالْدَّالُّ وَالْحَرْفُ الْمُعْتَلُّ أَصْلٌ صَحِيحٌ يَدُلُّ عَلَى زَمَانٍ. مِنْ ذَلِكَ الْغَدُو، يُقَالُ غَدَا يَغْدُو. وَالْغُدُوَّةُ وَالْغَدَاةُ، وَجَمْعُ الْغُدُوَّةِ غُدَى، وَجَمْعُ الْغَدَاةِ غَدَوَاتٌ. [6:415]

"Maqoyis al-lug'at" kitobida kelishicha غ va د va asli sahih bo'lgan va zamonga dalolat qiladigan illat harfidan iborat. Bundan الْغَدُو so'zi kelib chiqadi. غَدَا - tongda jo'namoq fe'li, الْغُدُو ko'pligi غُدَى erta tong va الْغَدَاة ko'pligi غَدَوَاتٌ erta tong so'zlari kelib chiqadi.

(وَلَا تَنْظُرُوا الَّذِينَ يَدْعُونَ رَبَّهُمْ بِالْغَدَاةِ وَالْعَشِيِّ يُرِيدُونَ وَجْهَهُ مَا عَلَيْكَ مِنْ حِسَابِهِمْ مِنْ شَيْءٍ وَمَا مِنْ حِسَابِكَ عَلَيْهِمْ مِنْ شَيْءٍ فَتَنْظُرَهُمْ فَتَكُونَ مِنَ الظَّالِمِينَ). [سورة الأنعام 52]

Ertay-u kech Robbilariga Uning yuzini iroda qilib duo etayotganlarni haydama! Ularning hisobidan sening zimmangda hech narsa yo'q. Sening hisobingdan ularning zimmasida hech narsa yo'q. Ularni haydab, zolimlardan bo'lib qolma. [1:197]

وَاصْبِرْ نَفْسَكَ مَعَ الَّذِينَ يَدْعُونَ رَبَّهُمْ بِالْغَدَاةِ وَالْعَشِيِّ [سورة الكهف 28]

O'zingni ertayu kech Robbilariga duo qilib, Uning yuzini iroda qiluvchilar ila sabr etib tut. [2:482]

Sahih ul-Buxoriyda 20 ga yaqin o'rinda mansub va majrur bo'lib kelgan hamda Bomdod namozi yoki tong vaqti kabi ma'nolarni ifodalagan hamda o'zining lingvistik ma'nosidan chetga chiqmagan.

أولاً: منصوبة: Birinchi marta nasb tushum kelishigida kelish holati.

"ال" Aniqlik artikli bilan aniq holatda nasb bo'lib keladi. To'ldiruvchi va ravish sifatida keladi.

عن نافع قال: كَانَ ابْنُ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا، إِذَا صَلَّى بِالْغَدَاةِ بِذِي الْخُلَيْفَةِ أَمَرَ بِرَاجِلَتِهِ فَرُجِلَتْ، ثُمَّ رَكِبَ، فَإِذَا اسْتَوَتْ بِهِ اسْتَقْبَلَ الْقِبْلَةَ قَائِمًا، ثُمَّ يَلْبِي حَتَّى يَبْلُغَ الْمَحْرَمَ، ثُمَّ يُمْسِكُ حَتَّى إِذَا جَاءَ دَا طَوَى بَاتَ بِهِ حَتَّى يُصْبِحَ، فَإِذَا صَلَّى الْغَدَاةَ اغْتَسَلَ". [7:314]

Nofe'dan rivoyat qilinadi: Ibni Umar roziyallohu anhumo Zulhulayfada bomdodni o'qiganda buyurar, ulovi hozirlanib, so'ng minar edi. (Ulov) u kishini ko'tarib, tiklanganida qiblaga yuzlanar, keyin haramga yetguncha talbiya aytar, keyin (talbiyani) to'xtatar edi. Nihoyat Zotuvoga kelib, tong otguncha shu yerda tunar, bomdodni o'qigach, g'usl qilar edi. U Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday qilganlarini aytardi. [3:425]

Ushbu hadisi sharifda الغداة kalimasi ikki marotaba zikr qilinib har ikkala o'rinda ham bomdod namozi ma'nosini ifodalamoqda va معرفة aniq bo'lib kelmoqda. Semantik jihatdan esa بِالْغَدَاة kalimasi ب harfiga majrur bo'lib kelmoqda. Ikkinchi o'rinda esa الغداة kalimasi esa مفعول به to'ldiruvchi vazifasida kelgan shu sababdan nasb holatda turibdi.

وفي الحديث فَكَانَ أَوَّلَ مَنْ اسْتَقْبَلَ مِنْ مَنَامِهِ أَبُو بَكْرٍ وَكَانَ لَا يُوقِظُ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ مِنْ مَنَامِهِ حَتَّى يَسْتَقْبِظَ، فَاسْتَقْبِظَ عُمَرُ، فَقَعَدَ أَبُو بَكْرٍ عِنْدَ رَأْسِهِ، فَجَعَلَ يُكَبِّرُ وَيَرْفَعُ صَوْتَهُ حَتَّى اسْتَقْبِظَ النَّبِيُّ ﷺ فَنَزَلَ وَصَلَّى بِنَا الْغَدَاةِ. [7:725]

Boshqa bir hadisi sharifda Abu Rajo Aytadi: Uyqudan birinchi uyg'ongan kishi Abu Bakr bo'ldi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlari

uyg'onmagunlaricha, uyqularidan uyg'otmasdilar. Keyin Umar ham uyg'ondi. Abu Bakr esa u zotning boshlari yoniga o'tirib, ovozi ko'tarib takbir ayta boshladi. Shunda nabiy sollallohu alayhi vasallam uyg'ondilar, keyin pastga tushib, bizga bomdod namozini o'qib berdilar. [3:604]

Oisha roziyallohu anho va Abu Rajo rivoyat qilgan hadislarida ham الغداة so'zini bomdod namozi ma'nosini anglatib معرفة aniq holatda kelgan va مفعول به to'ldiruvchi vazifasida kelgani uchun nasb holatda turibdi.

عن أَسْمَةَ بْنِ زَيْدٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا أَنَّهُ قَالَ: رَدِثْتُ رَسُولَ اللَّهِ مِنْ عَرَافَاتٍ فَلَمَّا بَلَغَ رَسُولُ اللَّهِ الشَّعْبَ الْأَيْسَرَ الَّذِي دُونَ الْمُزْدَلِفَةِ أَنَاخَ فَبَالَ ثُمَّ جَاءَ فَصَبَّيْتُ عَلَيْهِ الْوُضُوءَ تَوَضَّأَ وَضْءًا خَفِيفًا. فَقُلْتُ: الصَّلَاةُ يَا رَسُولَ اللَّهِ قَالَ "الصَّلَاةُ أَمَامَكَ". فَكَرِبَ رَسُولُ اللَّهِ حَتَّى أَتَى الْمُزْدَلِفَةَ فَصَلَّى ثُمَّ رَدِثَ الْفَضْلُ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ غَدَاةً جَمْعَ. [7:336]

Usoma ibn Zayd roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: "Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga Arafotdan mingashib oldim. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Muzdalifadan beriroqdagi chap so'qmoqqa yetganlarida tuyani cho'ktirdilar. Keyin bavl qildilar, so'ngra ketdilar. Men u zotga tahorat suvi quyib turdim, yengil tahorat oldilar. Men: "Namozgami, ey Allohning Rasuli?" dedim. U zot: "Namoz hali oldingda", dedilar. Keyin Rosululloh sollallohu alayhi vasallamulovga mindilar. Nihoyat, Muzdalifaga yetib kelganlarida namoz o'qidilar. Keyin Jam'* tongida Rosululloh sollallohu alayhi vasallamga Fazl mingashib oldi". [3:496]

*"Jamra" – tosh otish joyi degani. Mino vodiysida shaytonga tosh otiladigan uchta joy bor. Birinchisi Jamratul-kubro – katta tosh otish joyi, ikkinchisi Jamratul-vusto – o'rta tosh otish joyi, uchinchisi Jamratus-sug'ro – kichik tosh otish joyi.

Ushbu hadisi sharifda الغداة so'zi yuqoridagi hadislardan faqrli o'laroq tong ma'nosini ifodalagani ko'rishimiz mumkin. Semantik jihatdan esa الغداة so'zi معرفة aniq holatda kelgan hamda payt ravishi bo'lib kelgan.

وَعَنِ الرُّبَيْعِ بِنْتِ مُعَوَّذٍ، قَالَتْ: أُرْسِلَ النَّبِيُّ ﷺ غَدَاةً عَاشُورَاءَ إِلَى قَرَى الْأَنْصَارِ: مَنْ أَصْبَحَ مُفْطِرًا، فَلَيْتَمَ بَقِيَّةَ يَوْمِهِ وَمَنْ أَصْبَحَ صَائِمًا، فَلْيَصُمْ. [7:390]

Rubayyi' bint Mu'avviz roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam Ashuro tongida ansorlarning qishlog'iga odam jo'natib: "Kim og'zi ochiq holda tong ottirgan bo'lsa, kunning qolganini (ro'za bilan) tugal qilsin. Kim ro'zador holda tong ottirgan bo'lsa, ro'zasini tutsin", dedilar. [4:23]

Rubayyi' bint Mu'avviz roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadisda ham الغداة so'zi tong Ashuro tongi ma'nosini ifodalagan, معرفة aniq holatda kelgan va grammatik jihatdan esa الغداة so'zi مفعول فيه payt ravishi bo'lib kelgan.

ثانيا: مجرورة: Ikkinchi marta jar qaratqich kelishigida kelish holati.

Sahih ul-Buxoriyda 13 marta majrur bo'lib kelgan hamda Bomdod namozi yoki tong vaqti kabi ma'nolarni ifodalagan.

حَدَّثَنَا أَنَسُ بْنُ سِيرِينَ، قَالَ: قُلْتُ لِإِبْنِ عُمرَ: أَرَأَيْتَ الرَّكْعَتَيْنِ قَبْلَ صَلَاةِ الْغَدَاةِ أَطِيلُ فِيهِمَا الْقِرَاءَةَ، فَقَالَ: كَانَ النَّبِيُّ يُصَلِّي مِنَ اللَّيْلِ مَثْنَى مَثْنَى وَيُوتِرُ بِرَكْعَةٍ، وَيُصَلِّي الرَّكْعَتَيْنِ قَبْلَ صَلَاةِ الْغَدَاةِ، وَكَانَ الْأَذَانَ بِأَذْنَيْهِ" [7:203]

Anas ibn Sirinshunday so'zlab berdi: "Men ibn Umarga: "Ayting-chi, bomdod namozidan oldingi ikki rak'atda qiroatni uzun qilamanmi?" dedim. U kishi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam tunda namozni ikki rak'at-ikki rak'atdan



o'qir va bir rak'at bilan vitr (toq) qilar edilar. Bomdod namozidan oldingi ikki rak'atni esa xuddi quloqlariga iqoma (aytilgandek) o'qir edilar", dedi". [3:77]

Ushbu hadisi sharifda الغَدَاة so'zini izofa holatida qatarqich kelishigida kelgan. صَلاَة so'zi مضاف aniqqlanmish الغَدَاة esa إليه مضاف moslashmagan aniqlovchi bo'lib kelgan.

وَعَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا: "أَنَّ النَّبِيَّ كَانَ لَا يَدْعُ أَرْبَعًا قَبْلَ الظُّهْرِ، وَرَكْعَتَيْنِ قَبْلَ الْغَدَاةِ". [7:238]

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam peshindan oldingi 4 rak'at, bomdoddan oldingi ikki rak'atni tark etmas edilar. [3:185]

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ "دَعَا رَسُولُ اللَّهِ ﷺ عَلَى الَّذِينَ قَتَلُوا أَصْحَابَ بَيْرِ مَعُونَةَ ثَلَاثِينَ غَدَاةً، عَلَى رِغْلٍ، وَ دَكَّوَانٍ وَ عُصِيَّةٍ عَصَتِ اللَّهُ وَ رَسُولُهُ" [7:574]

Anas ibn Molik roziyallohu anudan rivoyat qilinadi: "Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Ma'una qudug'i oldidagilarni qatl qilganlarni – Alloh va Uning Rosuliga osiy bo'lgan Ri'l, Zakvon va Usayyani o'tizta bomdoda duoibad qilidilar." [5:66]

Manbu hadisi sharifdagi غَدَاة kalimasi bomdod namozi ma'nosini ifodalab noaniq holatda kelmoqda. Va ushbu kalima adaddan keyin kelgani sababidan aniqqlashtiruvchi aniqlovchi bo'lib tushum kelishigida kelgan.

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا: ثُمَّ رَكِبَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ ذَاتَ يَوْمٍ مَرْكَبًا، فَخَسَفَتِ الشَّمْسُ، فَرَجَعَ ضَحَى.

[7:214]

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Keyinroq, bir kuni ertalab Rosululloh sollallohu alayhi vasallam ulovga minib ketdilar. Keyin quyosh ko'tarildi. U zot choshgoh vaqtida qaytdilar. [3:115]

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Imom Buxoriy rivoyat qilgan Sahih ul-Buxoriy asaridagi hadisi shariflarni tarjima qilish va ularni ma'no-manmunini tushunish uchun bir so'z doirasida bir qanch so'z va so'z birikmasining tarjimadagi ekvivalentlilik ko'pligiga duch kelamiz, bu o'z o'rnida lug'at boyligimiz oshishiga sabab bo'ladi. Bu jihatlarni arab va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganish, lmiy tadqiq etish tilshunoslikdagi muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Tafsiri Hilol" 2- juz, Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 638 bet

2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Tafsiri Hilol" 3- juz, Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 669 bet

3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 2- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 670 bet

4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 3- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 670 bet

5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 4- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 670 bet

6. أحمد بن فاس بن زكريا أبو الحسين "معجم مقاييس اللغة"

7. أبو عبد الله محمد بن اسماعيل البخاري "صحيح البخاري"، دار كتاب العربي، بيروت

لبنان، 2016م، 1728ص.